



**BARQAROR RIVOJLANISH TA'LIM MUHITIDA TA'LIM
OLUVCHILARDA ATROF-MUHIT MUHOFAZASIGA OID BILIMLARNI
RIVOJLANTIRISH**

Raxmanova Zebiniso Po'latovna

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Bosh ilmiy-metodik markazi tadqiqotchisi,
biologiya fanlari nomzodi., dotsent*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21544491>

Annotatsiya. Ushbu maqola barqaror rivojlanish ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarda atrof-muhit muhofazasiga oid bilimlarni rivojlantirish masalalariga qaratilgan bo'lib, dunyoda bugungi ekologik holat, mavjud ekologik muammolar bo'yicha dunyo hamjamiyati tomonidan olib borilayotgan islohatlar, barqaror rivojlanish ta'lim muhitini joriy etish, barqaror rivojlanishning ijtimoiy, institutsional jihatlari, hamda barqaror rivojlanish g'oyasining davriyligi, tizimlilik bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish ta'lim muhiti, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, xalqaro tashkilotlar, globallashuv jarayoni, ekologik muammolar, umuminsoniy vazifalar, millatlararo hamjamiyat, barqaror rivojlanishning ijtimoiy jihatlari.

Jahonda zamonaviy texnogen sivilizatsiya natijasida yuzaga kelgan global ekologik inqiroz insoniyatga yangicha dunyoqarash, ekologik madaniyat shakllanishi bilan bog'liq hayot strategiyalarini ishlab chiqish zaruratini qo'ydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida global ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlari muhokama qilinib, xavfsiz hamda barqaror o'sish, farovon kelajakni barpo etishga qaratilgan hamkorlikni yo'lga qo'yish masalasi alohida ta'kidlandi. Bugungi barqaror rivojlanish ekologik muammolarni yechishda ta'lim tizimining ahamiyati va o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini



oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirishga e'tibor qaratmoqda.

Dunyoda bugungi ekologik holat yoshlar ekologik huquqiy ongini rivojlantirish va bu sohadagi nazariy fundamental, amaliy-metodologik asoslarini, metodik ta'minotini izchil takomillashtirib borish, innovatsion ta'lim muhiti sharoitida ta'lim jarayonlarini texnologiyalashtirish, virtual elektron resurslar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Ta'limning yangi ijtimoiy-ekologik funksiyasi talabalarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida ekologik ongni shakllantirish muammosini dolzarblashtiradi. Xususan, tabiat resurslaridan foydalanishda utilitar ehtiyojlar oshishi, tabiatga antropotexnogen bosimning kuchayishi, xalqaro ekologik siyosiy munosabatlar keskinlashuvi sharoitida, yoshlarda nigilistik dunyoqarash shakllanishining oldini olish, natijada global ekologik xavfsizlikni ta'minlash asosida ekologik huquqiy ongni shakllantirish talab qilmoqda. 5 YuNESKOning 2021 yil 22 sentabrda Butunjahon ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining "Inson va biosfera" dasturi (Man and the Biosphere Programme) doirasida va "Ekologik madaniyat. Tinchlik va Totuvlik-2021" xalqaro loyihalar belgalangan vazifalar yoshlarda ekologik huquqiy ong, ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan.

"Barqaror rivojlanish konsepsiyasi" ishlab chiqarish va iste'mol qilish, aholining o'sish va ijtimoiy himoya o'rtasidagi muvozanatni barcha davlatlarda saqlashni hisobga oladi. Chunki Yer sayyorasidagi atrof-muhit holati ularning birgalikdagi harakati majmuasi ekanligini e'tirof etdi. Ekologik muammolarning yechimi biron bir davlat (masalan, O'zbekiston) yoki biron bir davlatlar (masalan, "katta yettilik") faoliyatiga bevosita bog'liq emas ekanligi uqtirildi. Bu o'rinda yana bir bor Orol va Orolbo'yi muammosiga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasi 48,50,55- sessiyalari va Ming yillik rivojlanish sammitidagi ma'ruzalarida aytib o'tganidek1 , ushbu muammo nafaqat



Markaziy Osiyo davlatlari, balki butun dunyo hamjamiyati uchun dolzarb masaladir, chunki u global xavfsizlik xarakterga ega.

Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida 1992 yil 3-14 iyun kunlari bo'lib o'tgan BMTning "Atrof-muhit va rivojlanish"ga doir konferensiyasi(AMRK) atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha eng yirik tadbirlardan biri hisoblanishi inobatga olindi. Chunki, konferensiyada dunyoning 170 dan ziyod davlatida, jumladan, mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH)dan 7 davlat vakillari ishtirok etgan. Konferensiyaning maqsadi davlatlarning barqaror rivojlanishi va tinch-totuv yashashini ta'minlash uchun ekotizimlarga tushadigan bosimni kamaytirishga qaratilgan edi. Konferensiyaning o'tkazish qo'mitasining bosh kotibi Moris Strang rahbarligida uchta ishchi guruhlarda munozaralar olib borildi.

Konferensiya ishtirokchilari AMRK bo'yicha ikkinchi va uchinchi ming yilliklarning to'qnashuvida umuminsoniy vazifalardan bo'lmish quyidagi uch asosiy hujjatni:

- 1) atrof-muhitni muhofaza qilish va rivojlanishga doir Rio Deklaratsiyasi;
- 2) o'rmonlardan oqilona foydalanishni saqlash va uni o'zlashtirish mezonlari to'g'risidagi Bayonot;
- 3) XXI asr kun tartibini ishlab chiqdilar. AMRK o'tishi jarayonida ishchi guruh tomonidan tayyorlangan loyiha hujjatlari oydinlashtirilgan, muqobillashtirilgan va o'zgartirilgan.

BMT sobiq bosh kotibi Butros Gali konferensiyaning ochayotib o'z ma'ruzasida: "Hech vaqt, inson tarixi shunchalik darajada o'zingiz, boshqalar, bolalaringiz, nevaralaringiz, turli shakldagi hayotiy unsurlar uchun Sizlar qilgan yoki qilmagan amallarga bog'liq bo'lmagan" deb ta'kidlab o'tdi. BMT Bosh kotibining fikrini davom ettirib, konferensiya raisi Braziliya Prezidenti Fernando Kollor de Mello mazkur Sammitning maqsadi haqida to'xtalib, "bizlar ikkita fundamental nizomga: rivojlanish va atrof-muhitga asoslangan umumiy vazifalarni bajarishda olg'a siljishni ta'minlash



uchun yig'ildi "Bizlar tarixiy zaruriyat va axloqiy majburiyatni rivojlantirishning yangi modeli, ya'ni rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi degan tushunchalardan iborat bo'lgan jamiyatni qurishimiz zarur. Ekologik xavfsizliksiz va ijtimoiy adolatsiz dunyoning xavfsizligini ta'minlay ololmaymiz" degan g'oya ilgari surdilar

Barqaror rivojlanish va tabiat. Stokgolm-72, Rio-deJaneyro-92, Yoxannesburg–2002dagi konferensiya va sammitlarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, butun insoniyatning ekologik xavfsizligini ta'minlashning yagona to'g'ri yo'li – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasidagi faol xalqaro hamkorlikdir.

BMT hay'atining atrof-muhit bo'yicha ma'ruzasi (Earth Summit, 2002) shuni ko'rsatdiki, insoniyat "ekologik chorraha"da turibdi va ushbu kesishuvdan chiqqan yo'llar quyidagi "manzillar"ga olib kelishi mumkin: bozor iqtisodiyoti qolgan barcha qadriyatlardan ustun turishligiga; maqsadlarga siyosiy vositalar orqali erishishga; ulkan tafovutlar dunyosiga; barqaror rivojlanishning ustunligiga.

"XXI asr kun tartibi"ning I bo'lim 2.1-bandida: "Atrof-muhit va rivojlanish" muammolarini hal qilish uchun davlatlar sherikchilik munosabatlarining yangi shaklini yaratishga qaror qilishdi. Ushbu munosabat shakli millatlararo hamjamiyatning uzviy bog'langanligini hisobga olib barcha davlatlarda doimiy va konstruktiv muloqotni hamda samarali va adolatli jahon iqtisodiyotini tashkil qilish zaruriyati barqaror rivojlanishda ustuvor masala bo'lishi kerak», deb yozilgan. Atrof-muhit muhofazasi borasidagi barqaror rivojlanish muammolarini hal qilish uchun xalqaro hamkorlikning dolzarb yo'nalishlari "BRBS qarorlarini bajarish rejasi"da ko'rsatilganidek amalga oshirilishi mumkin.

Barqaror rivojlanishning ekologik tomonlarining bajarilishi xalqaro tashkilotlar, davlatlar va jamoalar uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarning amalga oshishi, afsuski, xalqaro huquqning majburiy me'yori hisoblanmaydi. Ular deklarativ xarakterga ega. Shuning uchun ham atrof-muhitni muhofaza qilishda institutsional



munosabatlarning umumiy yo'llarini izlash, bizning umumiy uyimiz – Yer sayyorasini saqlab qolish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy jihatlar. Barqaror rivojlanishning uchta asosiy jihati mavjud bo'lib, ular iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va atrof-muhit muhofazasidir. Ularni bir-biridan ajratish yoki alohida baholash mumkin emas, chunki ular o'zaro uzviy bog'langan va bir-biridan kelib chiqadi. Har bir mamlakat, har bir xalqaro huquq sub'ekti barqaror rivojlanish muammolarini o'zining siyosiy, tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yechadi. Ammo ushbu uch tarkibiy qismning ilmiy asoslanganligi, ularning o'zaro tenglashtirilganligi va integratsiyalanganligi muhimdir. Statistika umumiy son yoki empirik yagona ko'rsatkich olish uchun ikki yoki ko'p omilli tahlil o'tkaziladi.

Barqaror rivojlanishning barqaror birlashish (institutsional) jihatlar. Barqaror rivojlanish va uning indikatorlari tadqiq qilinganda ko'p hollarda, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik (jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish) indikatorlar o'rganish ob'ekti sifatida olinadi. Lekin hozirgi globallashtirish jarayonida institutsional indikatorlar ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Barqaror rivojlanishning institutsional jihatlar: indikatorlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq milliy qonunchilik, sohaga oid axborot ta'minoti, ta'sir choralari va boshqalarni nazarda tutadi.

Barqaror rivojlanish g'oyasining davriyligi. Atrof-muhit va barqaror rivojlanish konsepsiyasining yaratilish tarixiga jiddiy ravishda nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tkazilgan anjumanlar nomi, qabul qilingan qarorlar va ularni amalga oshirish mexanizmi, hattoki, ishtirokchilari ham zamonga qarab o'zgarib borgan. Bu esa barqaror rivojlanish g'oyasining davriyligini bildiradi. Agarda 1970 yil "Rim klubi" a'zolarini xavotirga solayotgan global muammo aholining iste'mol mahsulotlariga ehtiyoj nisbatan tez sur'atlarda o'sayotganligi va shu munosabat bilan «O'sish chegarasini» o'rnatishga qaratilgan bo'lsa, 2 yil o'tar-o'tmas bu muammo global



miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga aylandi. 20 yildan so'ng "Atrof-muhit va rivojlanish" g'oyasi tabiat va jamiyat birligini anglatdi. Rio-10 anjumani esa atrof-muhitni muhofaza qilish g'oyasidan uzoqlashib "Barqaror rivojlanish" g'oyasini ilgari surdi.

Barqaror rivojlanish g'oyasining tizimlili. Tizim (o'zbek tilida) yoki sistema (grek tilida) yagona bir ma'noni anglatib, u narsa, hodisa, jarayon, voqelikni muayyan bir maqsadlariga qarab qismlarga ajratish va ularni ierarxik pog'onaga joylashtirilgan bir butunlik demakdir. Barqaror rivojlanish g'oyasining tizimlili uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat ekanligi va ushbu qismlarni amalga tadbqiq etishning birlamchiligiga yoki muammoning qaysi bir jihati mavjud sharoitda qanday ahamiyat kasb etishiga qarab muayyan bir ketma-ketlikda joylashtirish demakdir. Masalan, barqaror rivojlanishda uch asosiy masala, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik qismlarning bir butunligi aks ettirilgan. Lekin endigina mustaqil rivojlanish yo'liga o'tib olgan barcha mamlakatlar uchun iqtisodiyotning birlamchiligi, ya'ni iqtisodning siyosatdan ustuvorligi tamoyili, to'g'rirog'i, prinsipiga amal qiladi.

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy jihatlari. Barqaror rivojlanishning uchta asosiy jihati mavjud bo'lib, ular iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va atrof-muhit muhofazasidir. Ularni bir-biridan ajratish yoki alohida baholash mumkin emas, chunki ular o'zaro uzviy bog'langan va bir-biridan kelib chiqadi. Har bir mamlakat, har bir xalqaro huquq sub'ekti barqaror rivojlanish muammolarini o'zining siyosiy, tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yechadi. Ammo ushbu uch tarkibiy qismning ilmiy asoslanganligi, ularning o'zaro tenglashtirilganligi va integratsiyalanganligi muhimdir. Statistika umumiy son yoki emperik yagona ko'rsatkich olish uchun ikki yoki ko'p omilli tahlil o'tkaziladi.

Barqaror rivojlanishning barqaror birlashish (institutsional) jihatlari. Barqaror rivojlanish va uning indikatorlari tadqiq qilinganda ko'p hollarda, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik (jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish) indikatorlar o'rganish



ob'ekti sifatida olinadi. Lekin hozirgi globallashtirish jarayonida institutsional indikatorlar ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Barqaror rivojlanishning institutsional jihatlari: indikatorlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq milliy qonunchilik, sohaga oid axborot ta'minoti, ta'sir choralari va boshqalarni nazarda tutadi.

Barqaror rivojlanish g'oyasining davriyligi. Atrof-muhit va barqaror rivojlanish konsepsiyasining yaratilish tarixiga jiddiy ravishda nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tkazilgan anjumanlar nomi, qabul qilingan qarorlar va ularni amalga oshirish mexanizmi, hattoki, ishtirokchilari ham zamonga qarab o'zgarib borgan. Bu esa barqaror rivojlanish g'oyasining davriyligini bildiradi. Agarda 1970 yil "Rim klubi" a'zolarini xavotirga solayotgan global muammo aholining iste'mol mahsulotlariga ehtiyoj nisbatan tez sur'atlarda o'sayotganligi va shu munosabat bilan «O'sish chegarasini» o'rnatishga qaratilgan bo'lsa, 2 yil o'tar-o'tmas bu muammo global miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga aylandi. 20 yildan so'ng "Atrof-muhit va rivojlanish" g'oyasi tabiat va jamiyat birligini anglatdi. Rio-10 anjumani esa atrof-muhitni muhofaza qilish g'oyasidan uzoqlashib "Barqaror rivojlanish" g'oyasini ilgari surdi.

Barqaror rivojlanish g'oyasining tizimlilik. Tizim (o'zbek tilida) yoki sistema (grek tilida) yagona bir ma'noni anglatib, u narsa, hodisa, jarayon, voqelikni muayyan bir maqsadlariga qarab qismlarga ajratish va ularni ierarxik pog'onaga joylashtirilgan bir butunlik demakdir. Barqaror rivojlanish g'oyasining tizimlilik uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat ekanligi va ushbu qismlarni amalga tadbiiq etishning birlamchiligiga yoki muammoning qaysi bir jihati mavjud sharoitda qanday ahamiyat kasb etishiga qarab muayyan bir ketma-ketlikda joylashtirish demakdir. Masalan, barqaror rivojlanishda uch asosiy masala, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik qismlarning bir butunligi aks ettirilgan. Lekin endigina mustaqil rivojlanish yo'liga o'tib olgan



barcha mamlakatlar uchun iqtisodiyotning birlamchiligi, ya'ni iqtisodning siyosatdan ustuvorligi tamoyili, to'g'rirog'i, prinsipiga amal qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvarda "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son Farmoni
2. Ahmadul Ergashev, Temur Ergashev. "Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish" "Yangi asr avlodi", 2005-yil.
3. Allaberganova D.K. Atrof-muhitni muhofaza qilish va joylarda jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishda aholining faolligini kuchaytirishda fuqarolik institutlarining roli. // Obrazovanie i vospitanie. 2018.-№ 3.1-b.13-14.
4. Aydarov Ye.B. Ortiqova D.B. Yoshlarda ekologik tarbiya va madaniyatni rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslari. "Pedagogs" is awarded by the editorial board of the international electronic journal. O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyati, Rishton shahri. 07.02.2022. –B. 182-195.
5. Tilavov O'.G'. Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil), Fals.fanlari doktori (DSc) dissertasiya, Toshkent, 2021.
6. Tursunov A., Karimov S. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari – Toshkent, 2020.
7. Xolmuminov J. Ekologik tahdidlarni oldini olish.-T.: // "Inson va huquq", 2001. №6.
8. Гильмиярова С.Г. Непрерывное экологическое образование будущих учителей в России и США: Дисс. ...докт. Пед. Наук. – Уфа, БГПУ, 2002. – 372 с.
9. Данилов-Данильян В.И, Лосев К.С "Экологическая проблема и устойчивое развитие". М., 2000.